



OLIV TA'LIM TIZIMIDA MASOFAYIV TA'LIMNI JORIY ETISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Turan International University Gumanitar Fanlar va pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim SMT-22-CU guruh 4-kurs talabasi

Fayzullayeva Shahzoda Dilmurod qizi

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida masofaviy ta'lim shaklini joriy etishning mazmun-mohiyati, uning normativ-huquqiy asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil etiladi. Masofaviy ta'limning zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilishi, ta'lim sifatini oshirishdagi roli va ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishdagi ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, masofaviy ta'limni rivojlantirish istiqbollari va dolzarb muammolari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, oliy ta'lim, raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim, onlayn o'qitish, ta'lim sifati

Annotation

This article analyzes the essence, legal framework, and practical significance of implementing distance education in the higher education system. The role of distance education based on modern digital technologies in improving the quality of education and expanding access to learning opportunities is highlighted. In addition, the prospects for development and current challenges of distance education are discussed.

Keywords: distance education, higher education, digital technologies, e-learning, online learning, quality of education



Kirish

Dunyo shunchalik tez rivojlanmoqdaki, bugungi yangilik ertaga eskirib qolyapti. Shuning uchun, ma'lumotlarni o'z vaqtida olish maqsadida, odamzot informatsion texnologiyalarni yaratdi.

Kompyuter — bu oddiy va qulay tarzda ma'lumotlarga etish vositasidir. Ma'lumotlar bilan ishlayotgan shaxs, ma'lumotlarning qaerda joylashishidan qat'i nazar, xoh u shaharda, xoh jahonning boshqa nuqtasi bo'lsin, uni olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Hozirda shu va shunga o'xshash boshqa muammolar kompyuterlar yordamida bartaraf qilinmoqda.

Kompyuterlar inson hayotining barcha jabhalariga jadallik bilan kirib borapti va jahonda ularning soni va qo'llanilish doirasi kengaygandan kengaymoqda. Bu esa kompyuterlarning kundan- kunga yanada rivojlanishini ta'minlayapti. Bularning hammasi ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Zamon talabi esa yangi o'quv muhiti, ya'ni yangi informatsion texnologiyalar yordamida ixtiyoriy joyda turib bilim olish, ixtiyoriy o'quv yurtlari bilan aloqa qilish va jahonning ixtiyoriy nuqtasidagi ma'lumotlarni olishdir. Bunda bizga internet tizimi yordam berishi mumkin.

Internet tizimi orqali ta'lim tizimi tashkil qilingan maktablar, kollejlari va o'quv yurtlari hozirgi kunda rivojlanib borayotgan "virtual o'quv yurtlari"ga birlashayotganini kuzatish mumkin. Bu esa o'quv muassasalari orasidagi masofani qisqartiradi va ma'lumotlar almashinuvini maksimal darajada ta'minlaydi.

Ta'limga yangi texnologiyalarning kirib kelishi — axborotni uzatish va qayta ishlashning elektron vositalariga asoslangan yangi ta'lim texnologiyalarining va o'qitish shakllarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Masofaviy o'qitishda o'rgatuvchi, sinovchi va aloqa vositalari kabi texnik vosita va texnologiyalar qo'llaniladi. O'rgatuvchi vositalarga izohli lug'atlar, qidiruv vositalari, elektron o'quv qo'llanmalar, ma'ruzalarning videokursi va



boshqalar kiradi. Sinov vositalariga test savollari, o‘z- o‘zini tekshirish vositalari mansub.

Aloqa vositalari bular — forumlar, pochta, audio va videokassetalardir.

Masofaviy ta’lim — o‘qituvchi va talaba bir joyda bo‘lmagan holda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali bilim olish imkonini beruvchi ta’lim shakli. Masofaviy ta’lim internet, elektron platformalar, video-darslar, virtual sinflar va masofaviy baholash tizimlariga tayanadi.^[1]

Masofaviy ta’lim pandemiyadan so‘ng butun dunyoda keng rivojlandi va bugungi kunda oliy ta’lim, maktab ta’limi hamda malaka oshirish tizimining muhim qismiga aylangan.

Masofaviy o‘qitish ikki shaklda olib boriladi:

- sinkron — real vaqt rejimida videodarslar;
- asinkron — o‘quvchi istalgan vaqtda materiallarni o‘qiydi.

Masofaviy ta’limning turlari

- Onlayn ta’lim
- Gibril ta’lim
- Elektron ta’lim (e-learning)
- MOOC — ommaviy ochiq onlayn kurslar
- Virtual sinf — real vaqtli videodarslar

Masofaviy ta’limning afzalliklari

- geografik cheklovlar yo‘q;
- istalgan vaqtda o‘qish;
- o‘quv materiallarini tezkor olish;
- xarajatlarning kamayishi;
- dunyodagi yetakchi kurslarga kirish imkoniyati.

Kamchiliklari



- internet sifati past hududlarda qiyinchiliklar;
- nazoratning murakkabligi;
- amaliy mashg'ulotlarning cheklanishi;
- ijtimoiy muloqotning kamayishi.

O'zbekistonda masofaviy ta'lim 2020-yil pandemiya davrida keng joriy etildi va bugungi kunda oliy o'quv yurtlari, maktablar va o'quv markazlarida qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 03.10.2022 yildagi 559-son qarori oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etishga qaratilgan. Qarorga muvofiq, masofaviy ta'lim oliy ta'limning mustaqil shakli sifatida yo'lga qo'yilib, o'quv jarayoni zamonaviy raqamli ta'lim platformalari orqali amalga oshiriladi.

Masofaviy ta'limda o'quv mashg'ulotlari onlayn ma'ruza, videodars, virtual amaliy va mustaqil ta'lim shakllarida tashkil etiladi. Talabalar bilimini baholash elektron nazorat va yakuniy attestatsiya orqali olib boriladi.

Qaror oliy ta'limda ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ta'lim sifati va shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qarorning asosiy maqsadi

- Oliy ta'lim tashkilotlarida **masofaviy ta'lim shaklini huquqiy jihatdan tartibga solish;**
- Ta'lim jarayoniga **raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;**
- Aholining turli qatlamlari, jumladan ishlovchi, chekka hududlarda yashovchi va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun oliy ta'limdan foydalanish imkoniyatini oshirish.

Qarorda belgilangan asosiy vazifalar



1. Masofaviy ta'lim shaklini joriy etish

- Oliy ta'lim tashkilotlarida **masofaviy ta'lim mustaqil ta'lim shakli** sifatida joriy etiladi;
- Masofaviy ta'lim **axborot-ta'lim platformalari** orqali amalga oshiriladi.

2. Ta'lim jarayonini tashkil etish

- O'quv mashg'ulotlari:
 - ✓ videodarslar;
 - ✓ onlayn ma'ruzalar;
 - ✓ virtual seminar va amaliy mashg'ulotlar;
 - ✓ mustaqil ta'lim shaklida olib boriladi.
- Talabalar bilimini baholash **onlayn nazorat va yakuniy attestatsiya** orqali amalga oshiriladi.

3. O'quv reja va dasturlar

- ✓ Masofaviy ta'lim uchun alohida **o'quv rejalari va fan dasturlari** ishlab chiqiladi;
- ✓ Ular an'anaviy (kunduzgi, sirtqi) ta'lim shakllari bilan **mazmunan mos bo'lishi** shart.

4. Axborot texnologiyalari bilan ta'minlash

- Oliy ta'lim tashkilotlari:
 - ✓ elektron ta'lim platformalari;
 - ✓ masofaviy ta'lim uchun serverlar;
 - ✓ raqamli kontentlar (videodarslar, elektron darsliklar) bilan ta'minlanadi.



➤ O‘qituvchilarni **raqamli pedagogika** bo‘yicha malakasini oshirish belgilangan.

5. Kadrlar va mas’uliyat

✓ Masofaviy ta’limni tashkil etish uchun mas’ul bo‘lgan tuzilmalar belgilanadi;

✓ Ta’lim sifati, shaffofligi va akademik halollikni ta’minlash choralariga alohida e’tibor qaratiladi.

Oliy ta’limda masofaviy ta’lim quyidagi platformalarda olib boriladi:

➤ Moodle;

➤ Google Classroom;

➤ Zoom va Microsoft Teams;

➤ OTMlarning ichki platformalari (masalan, HEMIS bilan integratsiya qilingan tizimlar).

2021-yildan boshlab masofaviy ta’lim O‘zbekistonning normativ-huquqiy hujjatlarida ham mustahkamlangan.

Xalqaro tajriba

Dunyoning yetakchi universitetlari — Harvard, MIT, Oxford, Seoul National University — masofaviy ta’lim platformalaridan faol foydalanadi. MOOC kurslari butun dunyoda millionlab o‘quvchilarga bepul yoki arzon ta’lim olish imkonini bergan.

Yevropa oliy ta’lim hududi (EHEA) masofaviy kreditlar tan olinishi bo‘yicha maxsus standartlar ishlab chiqqan.

Mashhur xalqaro platformalar:

➤ Coursera

➤ Udemy



- edX
- Khan Academy
- FutureLearn

O'zbekistonda esa masofaviy ta'lim ko'pincha HEMIS bilan bog'langan ichki tizimlar orqali amalga oshiriladi.

Masofaviy ta'limda o'qituvchi funksiyasini o'rgatuvchi va sinovchi vositalar (to'la avtomatlashtirilgan, tugal dasturiy mahsulotlar) bajaradi, shuningdek, o'qitishning avtomatlashtirilgan muhitini tashkil etuvchi video va elektron nashr etilgan uslubiy material bajaradi.

Masofaviy ta'lim kunduzgi ta'lim mazmunidagi kabi mos ravishda o'sha maqsadlar bilan quriladi (agar u ta'limga mos keluvchi dastur bo'yicha qurilsa), lekin, materialni etkazish shakli, o'qituvchi va o'quvchilar, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro o'rtasidagi ta'sir etish shakli boshqacha bo'ladi.

Masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari sifatida modullilik, o'qituvchi rolini o'zlashtirish, o'quv jarayoni sub'ektlarining masofa bilan ajratilganligi, ta'limning virtual kooperativligi, o'qituvchi tomonidan yuritiladigan nazorat ustidan o'z nazoratini o'rnatish, zamonaviy maxsus ta'lim texnologiyalari va vositalarining ishlatilishini keltirishimiz mumkin.

Masofaviy ta'lim ishlatilishining asosiy sohalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ma'lum sohalar bo'yicha pedagogik kadrlar malakasini oshirish;
- imtihonlarni ekspert usulida topshirishda alohida o'quv fanlari bo'yicha maktab o'quvchilarini tayyorlash;
- ma'lum yo'nalishdagi o'quv muassasalariga o'qishga kirish uchun maktab o'quvchilarini tayyorlash;
- maktab o'quvchilarining yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olishlarini tashkil etish;
- qiziqish bo'yicha qo'shimcha ta'lim olish;



- kadrlarni kasbga qayta tayyorlash;
- kasbiy tayyorgarlik.

Masofaviy ta'lim bilan kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarini taqqoslab, shuni xulosa qilish mumkinki, masofaviy ta'limni, personal kompyuterlar, video va audio texnika, kosmik va optik tolali texnikaning ishlatilishiga asoslangan ta'limni axborot texnologiyalari bilan ta'minlangan sirtqi va kunduzgi ta'lim rivojlanishining yangi bosqichi sifatida ko'rish mumkin.

Masofaviy ta'lim sirtqi ta'lim shaklidan shunisi bilan farq qiladiki, unda materialning mohiyatli qismi mustaqil o'zlashtirilmasdan, o'qituvchi bilan doimiy muloqotda amalga oshiriladi (telefon va internet, ma'ruza va seminarlarda onlayn rejimidagi konsultatsiyalar). SHuningdek, masofaviy ta'limning sirtqi ta'lim shaklidan asosiy farqlari sifatida quyidagilarni kiritish mumkin: – telekommunikatsiya vositalari yordamida o'qituvchi bilan doimiy muloqot, vujudga keladigan savollar bo'yicha u bilan operativ tarzda muloqot qilish imkoniyati.

Rivojlangan davlatlarda yangi tipdagi o'quv yurtlari mavjud. Bunday o'quv yurtlari "ochiq", "masofali" universitet, "elektron", "virtual" kollejlari deb nomlana boshlandi. Ular o'ziga xos tashkiliy strukturaga ega bo'lib o'ziga mos pedagogik usul, iqtisodiy mexanizmlardan foydalaniladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta'lim oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu ta'lim shakli ta'lim olishda hududiy va vaqt cheklovlarini bartaraf etib, aholining keng qatlamlari uchun oliy ta'limdan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan masofaviy ta'lim ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 03.10.2022 yildagi 559-son qarori
2. Qiyosiy pedagogika fanidan o‘quv uslubiy majmua. Mámbytarov Sháryar. Nukus 2022.
3. <https://mavzular.uz/>
4. <https://lex.uz/>